



# Qo‘qon DPI

# ILMIY XABARLAR

ISSN: 3030-3958

№ 3/2025

# **Qo‘qon DPI.**

## **Ilmiy xabarlar**



# **Кокандский ГПИ.**

## **Научный вестник**

**№3/2025**



## **PSIXOLINGVISTIKA VA KOGNITIV LINGVISTIKA: O‘ZARO BOG‘LIQLIK, FARQLAR VA ZAMONAVIY ILMUY DOLZARBLIK**

***Hazratqulova Ezoza Ismat qizi,***  
***Chirchiq davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti,***  
***E-mail: : ehazratqulova@cspu.uz / khazratkulova@gmail.com***

**Annotatsiya.** Bugungi kunda psixolingvistika hamda kognitiv lingvistika o‘xshish tomonlari va farqlarini ajratish o‘rganuvchilar uchun bir qancha muammo tug‘dirayotganligi sababli ushbu maqolada psixolingvistika va kognitiv lingvistika o‘rtasidagi bog‘liqlik va farqlar ko‘rib chiqiladi. Ushbu sohalarning kelib chiqishi, rivojlanish tarixi va zamонавиy lingvistik tadqiqotlardagi o‘rni o‘rganiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, har ikkala yo‘nalish til va ong o‘rtasidagi murakkab munosabatni o‘rganadi, biroq ularning yondashuvlari va tadqiqot usullari turlicha.

**Kalit so‘zlar:** psixolingvistika, kognitiv lingvistika, tafakkur, funksional magnitrezonans tomografiya.

**Abstract:** Today, distinguishing between psycholinguistics and cognitive linguistics presents a challenge for learners. Therefore, this article explores the relationship and differences between psycholinguistics and cognitive linguistics. The origins, development history, and roles of these fields in modern linguistic research are examined. The research shows that both fields study the complex relationship between language and mind, but their approaches and research methods differ.

**Keywords:** psycholinguistics, cognitive linguistics, cognition, functional magnetic resonance imaging.

**Аннотация:** На сегодняшний день разделение психолингвистики и когнитивной лингвистики вызывает определенные трудности у изучающих эти области. Поэтому в статье рассматриваются связи и различия между психолингвистикой и когнитивной лингвистикой. Исследуются происхождение, история развития этих областей и их роль в современных лингвистических исследованиях. Исследования показывают, что обе области изучают сложные отношения между языком и сознанием, однако их подходы и методы исследования различны.

**Ключевые слова:** психолингвистика, когнитивная лингвистика, мышление, функциональная магнитно-резонансная томография.

**Kirish.** Til va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlik ilmiy jamoatchilik tomonidan uzoq yillardan beri muhokama qilinib kelinadi. Lingvistika, psixologiya va neyrobiologiya fanlarining rivojlanishi ushbu sohalarning o‘zaro bog‘liqligini chuqur o‘rganish imkonini berdi. Psixolingvistika va kognitiv lingvistikaga lingvistikaning asosiy yo‘nalishlari sifatida shakllangan bo‘lib, har ikkisi ham inson ongi va tili o‘rtasidagi munosabatni o‘rganadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Psixolingvistika XX asr o‘rtalarida paydo bo‘lib, tilni idrok etish, nutq ishlab chiqarish va tilni o‘rganish jarayonlarini psixologik va neyrofiziologik jihatdan o‘rganadi. Bu soha Noam Chomsky tomonidan ilgari surilgan generativ tilshunoslik nazariyasi va Lev Vygotsky tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-kognitiv yondashuvlar orqali shakllangan.

Chomsky (1957) tilni inson ongingin ichki tuzilmalari bilan bog‘liq deb hisoblab, universal grammatika nazariyasini ilgari surgan. Uning fikricha, inson miyasi tug‘ma til qobiliyatiga ega bo‘lib, bu qobiliyat bolalik davrida tabiiy ravishda rivojlanadi. U, shuningdek, sirtqi va chuqur tuzilma tushunchalarini kiritib, tilni sintaktik jihatdan tahlil qilishning yangi usullarini taklif etgan.

Vygotsky esa tilning o‘rganilishini ijtimoiy omillar bilan bog‘lagan bo‘lib, u til va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro aloqani chuqur tadqiq qilgan. Uning "yaqin rivojlanish zonasasi" konsepsiysi shuni ko‘rsatadiki, bolalar tilni mustaqil o‘rganish bilan birga, kattalar va atrof-muhtidagi insonlarning yordami orqali rivojlantiradilar. Uning yondashuvi psixolingvistika sohasida katta ta’sir ko‘rsatib, til o‘rganish jarayonlarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, psixolingvistika tadqiqotlarida Miller va Bruner kabi olimlarning ishlari ham muhim rol o‘ynagan. Ular tilni tushunish va eslab qolish jarayonlarini kognitiv psixologiya nuqtayi nazaridan o‘rganganlar. Shuningdek, 1960-yillardan boshlab psixolingvistika eksperimental metodlarni keng qo‘llay boshladi, bu esa ko‘z harakatlarini kuzatish (eyetracking), reaksiya vaqtini tajribalari hamda elektroensefalografiya (EEG) va funksional magnit-rezonans tomografiya (fMRI) kabi neyrofiziologik usullarni o‘z ichiga oladi.[2]

Bugungi kunda psixolingvistika nafaqat nazariy tadqiqotlar bilan cheklanmay, balki amaliy sohalarga, jumladan, nutq terapiyasi, sun’iy intellekt asosidagi tilni qayta ishlash tizimlari va avtomatik tarjima texnologiyalariga ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda.

Kognitiv lingvistika esa 1980-yillarda paydo bo‘lib, inson tafakkuri va til o‘rtasidagi bog‘liqlikni mental modellar va kontseptual metafora nazariyalari orqali tahlil qiladi. Lakoff va Johnson ushbu yo‘nalishning asoschilaridan bo‘lib, ular til semantikasi tafakkur jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq ekanligini isbotlagan.

Ushbu maqolaning maqsadi psixolingvistika va kognitiv lingvistikating bog‘liqligi, farqlari va zamonaviy ilmiy dolzarbligini tahlil qilishdir. Shuningdek, ushbu sohalarning sun’iy intellekt, neyropsixologiya va avtomatik tarjima kabi zamonaviy tadqiqotlardagi o‘rnini o‘rganish ham muhim vazifadir.[1]

Maqolada nisbiy tahlil usuli qo‘llanilib, psixolingvistika va kognitiv lingvistikaning asosiy tamoyillari solishtirildi. Shuningdek, ilmiy maqolalar va monografiyalar asosida ularning zamonaviy tadqiqotlar doirasidagi o‘rni va dolzarbligi tahlil qilindi.

Psixolingvistika eksperimental psixologiya va neyropsixologiya usullaridan keng foydalanadi. Tadqiqotlar odatda tajriba asosida olib borilib, tilni idrok qilish, eslab qolish va ishlab chiqarish jarayonlarini o‘rganadi. Mashhur metodlardan biri reaktsiya vaqt testi, eyetracking (ko‘z harakatlarini kuzatish) hamda funksional magnit-rezonans tomografiya (fMRI) orqali miya faoliyati tahlil qilinadi.[2]

Kognitiv lingvistika esa asosan kontseptual metafora nazariyasi, psixosemantik tahlil va korpus lingvistikasiga asoslanadi. Tadqiqotlarda mental modellar, sun’iy neyron tarmoqlari va statistik modellashtirishdan foydalaniladi. So‘nggi yillarda ushbu fan sun’iy intellekt bilan bog‘liq tadqiqotlarda ham faol qo‘llanilmoqda.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, psixolingvistika va kognitiv lingvistika bir-biriga yaqin fanlar bo‘lishiga qaramay, ularning o‘rganish obyekti va usullari sezilarli farqlarga ega.[4] Psixolingvistika nutq ishlab chiqarish va idrok qilish jarayonlarini eksperimental va neyropsixologik metodlar yordamida tahlil qiladi. Bu inson ongingin til bilan bog‘liq bo‘lgan psixik jarayonlarini chuqur tushunish imkonini beradi.

Kognitiv lingvistika esa til va tafakkur o‘rtasidagi aloqalarni, kontseptual metaforalar va mental modellar orqali tushuntiradi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, inson tafakkuri va til o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish uchun semantik tahlil, ongdagi mental tuzilmalar va metafora kabi nazariyalarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. George Lakoff va Mark Johnson tomonidan ilgari surilgan kontseptual metafora nazariyasi shuni ko‘rsatadiki, inson tafakkuri metaforik tabiatga ega bo‘lib, abstrakt tushunchalar ko‘pincha konkret tajribalar asosida shakllanadi. Masalan, “vaqt – bu pul” degan metafora kundalik hayotda vaqtini iqtisod qilish yoki sarflash kabi ifodalarda namoyon bo‘ladi.[2]

Shuningdek, kognitiv lingvistika tilning qayta ishlanish jarayonlarini tushuntirishda korpus lingvistikasi metodlaridan keng foydalanadi. Korpus lingvistikasi katta hajmdagi matnlarni kompyuter yordamida tahlil qilib, til birliklarining ishlatilish chastotasi, kontekstual ma’nosи va semantik aloqalarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu uslub kognitiv lingvistikaning empirik asosini mustahkamlash bilan birga, til strukturalarining inson tafakkuridagi aksini tahlil qilishga yordam beradi.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt texnologiyalari ushbu yo‘nalish tadqiqotlariga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan, tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing – NLP) va neyron tarmoqlarga asoslangan modellar kognitiv lingvistikaning amaliy qo‘llanilishida muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy sun’iy intellekt tizimlari, jumladan, mashinaviy tarjima, ovozli yordamchilar (masalan, Siri va Alexa), matnni tahlil qilish va chatbot texnologiyalari tilning semantik va sintaktik jihatlarini kognitiv lingvistika doirasida o‘rganish va modellashtirish imkonini bermoqda.

Kognitiv lingvistika va psixolingvistika til va tafakkur o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirni o‘rganadigan fan sohalari bo‘lib, ularning tadqiqot doirasi ko‘plab umumiy jihatlarga ega. Har ikkisi ham inson ongi va til o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qiladi, biroq ularning yondashuvlari va metodlari farqlidir. Kognitiv lingvistika asosan tilning miyada qayta ishlanish jarayonlari, lingvistik birliklarning neyron tarmoqlardagi shakllanishi va semantik ma’nolarning hosil bo‘lish mexanizmlarini o‘rganadi. Ushbu yondashuv ayniqsa, neyrolingvistika bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, grammatika, leksik tuzilma va semantikaning miya faoliyatida qanday aks etishini tadqiq qiladi.

Neyrolingvistika doirasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson miyasi tilni qayta ishlashda maxsus mintaqalarga ega. Masalan, Broka va Vernike markazlari tilni ishlab chiqarish va tushunishda asosiy rol o‘ynaydi. Funksional magnit-rezonans tomografiya (fMRI) va elektroensefalografiya (EEG) yordamida olib borilgan tadqiqotlar lingvistik birliklarning miyada qanday kodlanishini aniqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, sun’iy neyron tarmoqlari va model asosida qurilgan tizimlar inson miyasi qanday qilib tilni tushunishi va qayta ishlashi haqidagi tadqiqotlarni chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda.

Kognitiv lingvistikaning yana bir muhim yo‘nalishi – kontseptual tuzilmalar va mental modellar nazariyasi bo‘lib, bu yondashuvga ko‘ra, insonlar dunyoni idrok qilishda turli kognitiv sxemalardan foydalanadilar. Bu sxemalar odamlarning tajribalariga asoslangan holda shakllanib, til orqali ifodalanadi. Masalan, “hayot – bu sayohat” degan konseptual model insonlarning hayot bosqichlarini bosib o‘tiladigan yo‘l sifatida tushunishiga olib keladi.

Shunday qilib, kognitiv lingvistika va psixolingvistika nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb yo‘nalishlar bo‘lib, ularning zamonaviy texnologiyalar va neyrobiologiya bilan integratsiyasi lingvistika fanining yanada rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Psixolingvistika esa til va insonning ruhiy-emotsional xulq-atvori o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni tahlil qiladi. Ushbu yo‘nalish psixologik holatlar til orqali qanday namoyon bo‘lishini hamda lingvistik xulq-atvorning ijtimoiy va psixologik jarayonlarga qanday ta’sir ko‘rsatishini o‘rganadi. Shunday qilib, psixolingvistika ko‘proq insonlararo kommunikativ jarayonlarni o‘rganishga qaratilgan bo‘lsa, kognitiv lingvistika shaxsning individuallik darajasida sodir bo‘ladigan til va tafakkur jarayonlarini chuqurroq tahlil qiladi.

Ushbu ikki yo‘nalishning uzviy bog‘liqligi shundaki, kognitiv lingvistika individual ong darajasidagi tilni qayta ishlash mexanizmlarini tadqiq qilsa, psixolingvistika bu jarayonlarning shaxslar o‘rtasidagi kommunikativ faoliyatga qanday ta’sir qilishini o‘rganadi. Shu bois, zamonaviy lingvistika fanida ularning integratsiyasi tilni chuqur anglash va uning psixologik hamda neyrobiologik asoslarini tushunish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixolingvistika va kognitiv lingvistika o‘zaro bog‘liq bo‘lishiga qaramay, ularning tadqiqot obyektlari va metodlari farqlidir. Masalan, Chomsky tilning universal grammatikasi haqida nazariyasini ilgari surgan bo‘lsa, Lakoff va Johnson metaforalarning tafakkur jarayonlaridagi rolini o‘rgangan. Tomasello til o‘rganishning usage-based (qo‘llash asosidagi)

modelini tavsiya qilgan bo‘lsa, Vygotsky til va tafakkur o‘rtasidagi aloqalarni ijtimoiy kontekstda ko‘rib chiqqan. Ushbu nazariyalar tilshunoslik tadqiqotlarida muhim rol o‘ynaydi.

Sun’iy intellekt va nevropsixologiya sohalarida ushbu fanlar tobora dolzARB bo‘lib bormoqda. Mashinaviy tarjima, ovozli yordamchilar va til o‘rganish dasturlarida psixolingvistika va kognitiv lingvistikaning tadqiqotlari faol qo‘llanilmoqda.[4]

Psixolingvistika va kognitiv lingvistika zamonaviy tilshunoslikning muhim yo‘nalishlari bo‘lib, ularning har biri til va tafakkur jarayonlarini o‘rganishda katta ahamiyatga ega. Psixolingvistika tilning inson psixikasi, ongi va idrok jarayonlari bilan bog‘liqligini o‘rganar ekan, kognitiv lingvistika tilning inson tafakkuri bilan qanday bog‘lanishini, ma’no hosil bo‘lish jarayonlarini va mental tuzilmalarning shakllanishini tadqiq etadi.

Bundan tashqari, ushbu yo‘nalishlarning sun’iy intellekt va nevropsixologiya bilan bog‘lanishi kelajakdagi tadqiqotlar uchun yangi yo‘nalishlarni belgilaydi. Sun’iy intellekt sohasida tilni qayta ishlash tizimlarini rivojlantirish, nevron tarmoqlar asosida tabiiy tilni tushunish va ishlab chiqish kabilar psixolingvistika va kognitiv lingvistika tadqiqotlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Nevropsixologiya esa inson miyasining til bilan bog‘liq jarayonlarini chuqur o‘rganish orqali bu fanlarga yangi istiqbollar ochib bermoqda.[8]

Shunday qilib, psixolingvistika va kognitiv lingvistika nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ilmiy yo‘nalishlar bo‘lib, ularning boshqa fanlar bilan integratsiyasi kelajakda lingvistik tadqiqotlar doirasini yanada kengaytirishi kutilmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Chomsky, N. *New Horizons in the Study of Language and Mind*. Cambridge University Press. 2000. 69-190p
2. Lakoff, G., & Johnson, M. *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press. 19807-16p
3. Tomasello, M. *Constructing a Language: A Usage-Based Theory of Language Acquisition*. Harvard University Press. 2003
4. Pinker, S. (1994). *The Language Instinct*. William Morrow and Company. 33p.
5. Vygotsky, L. S. *Thought and Language*. MIT Press. 1962
6. Evans, V., & Green, M. *Cognitive Linguistics: An Introduction*. Routledge. 2006.
7. Jackendoff, R. *Foundations of Language: Brain, Meaning, Grammar, Evolution*. Oxford University Press. 2002.
8. Hazratqulova E.I. *Xorijiy tillarni onlayn tarzda o‘qitishda xalqaro baholash dasturlari va standartlari*. Academic research in educational sciences, 2 (CSPI conference 2), 2021. 613-616.
9. Hazratqulova E.I. & Botirova Sh. I. Psixolingvistik aspektlarining xorijiy tillarni o‘qitishda turli zamonaviy metodlarda qo‘llanishi. Academic research in educational sciences, 2024, 5 (CSPU Conference 1), 627-633.

NUTQIY ETIKETNING ZAMONAVIT TALQINI MADANIY- PRAGMATIK VA PSIXOLOGIK O‘ZARO BOG‘LIQLIK <i>Sevara Gulamovna Egamberdiyeva</i>	2183
NODIRA SHE’RIYATIDA TASAVVUF – MA’NAVIY TAMOYIL SIFATIDA <i>Eshonqulova Surayyo Isomiddinovna</i>	2189
PSIXOLINGVISTIKA VA KOGNITIV LINGVISTIKA: O‘ZARO BOG‘LIQLIK, FARQLAR VA ZAMONAVIY ILMIY DOLZARBLIK <i>Hazratqulova Eziza Ismat qizi</i>	2198
UNDERSTANDING SPEECH ACTS: STRUCTURE, FUNCTIONS, AND CONVERSATIONAL DYNAMICS <i>Hojiyeva Marjona To‘lqinovna</i>	2203
BADIY MATNDA OKKOZIONALIZMLAR <i>Ibragimov Xayrulla Hamdamovich</i>	2208
XORAZM ADABIY MUHITIDA DEVON TUZISH AN’ANASI <i>Islomova Baro Umurovna</i>	2213
NAVOIY LIRIKASIDA TABIAT TASVIRI <i>Yuldasheva Munisabonu Ilhomjon qizi</i>	2219
МУСОХОНХОЖА ДАҲБИДИЙНИНГ ҲАЁТИ ВА ИЛМИЙ МЕРОСИ <i>Юлдашходжаев Ҳайдар Ҳашимханович</i>	2225
ИБН АРАБИЙ “ВАҲДАТУЛ ВУЖУД” (“БОРЛИҚНИНГ ЯГОНАЛИГИ”) ТАЪЛИМОТИ АСОСЧИСИ <i>Болтаев Абдурахим Амонович</i>	2236
MA’LUMOTLAR BAZALARI VA INGLIZ GIDRONIMLARI: LINGVISTIK, MADANIY, ILMIY VA PEDAGOGIK YONDASHUV <i>Juraev Xasan Bahrom o‘g‘li, Nasimov Bekzod Shermuhammad o‘g‘li, Mamiraliyev Akmaljon Sayfidinovich</i>	2249
QIYOSLANAYOTGAN TILLARDA YANGILIKLARNING KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK TAHLILI VA ASSERTIV NUTQIY AKT TARJIMASIDA IZOMORFIK-ALLOMORFIK JIHATLAR <i>Kayumova Nilufar Xotam-qizi</i>	2257
ҲАМЗА ҲАКИМЗОДАНИНГ БИР МУЛАММАЬ ҒАЗАЛИ <i>Хўжамбердиев Шерзод</i>	2266
XX ASR BOSHLARI SHE’RIYATIDA QOFIYA VA OHANGDORLIK <i>Sherzod Xo’jamberdiyev</i>	2270
TIL VA MADANIYAT: TIL VA MADANIYAT O’RTASIDAGI BOG‘LIQLIKNI KOGNITIV TILSHUNOSLIK NUQTAI NAZARIDAN TAHLIL QILISH. <i>Komilova Malikaxon Nodirjon qizi</i>	2277
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA GASTRONOMIK TURIZM TERMINLARINING STRUKTURAL-SEMANTIK, FUNKSIONAL-PRAGMATIK O‘ZIGA XOSLIKHLARI <i>MANSURBEK YULDASHEV</i>	2285
NUTQ VA UNI SHAKLLANTIRISH <i>Djurayeva Sohiba Zayniddinovna</i>	2293
ISTE ‘MOL DOIRASI CHEGARALANGAN LEKSIKA ORQALI SIMPATIYA VA EMPATIYANI NUTQDA IFODALASH <i>Mavlanova Oybarchin Sheraliyevna</i>	2300
GENERAL AND SPECIFIC METAPHORICS: A COMPARATIVE ANALYSIS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES <i>Hazratqulova Muborak Rajabovna</i>	2308